

ERKIN BOZOROV POETIK TAFAKKUR MANBALARI

Xojimatova Nigora Boymamatovna

Andijon davlat universiteti

Adabiyotshunoslik o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20438693>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Bozorovning poetik tafakkuri shakllanishiga ta’sir etgan asosiy manbalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir ijodining falsafiy, estetik va badiiy ildizlari, shuningdek, milliy adabiy an’analar, xalq og’zaki ijodi hamda zamonaviy adabiy jarayonlar bilan bog’liqligi yoritiladi. Maqolada Erkin Bozorov poetik dunyoqarashining o‘ziga xos jihatlari, uning obraz yaratish mahorati va badiiy ifoda vositalaridan foydalanish tamoyillari ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, shoir ijodida kuzatiladigan ramziylik, metaforik tafakkur va falsafiy mushohada unsurlarining shakllanish manbalari aniqlanadi.

Kalit so‘z. Poetik tafakkur, Abdulla Oripov, parodiya, bog’liqlik, ustoz, epigraf, misra, obraz.

Erkin Bozorov zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos poetik tafakkur, falsafiy mushohada va ruhiy kechinmalarni chuqur tasvirlash mahorati bilan ajralib turadi. Uning she’rlarida sodda ko‘ringan ifoda ortida teran ma’no qatlamlari yashiringan bo‘lib, obrazlar tizimi orqali inson ruhiyati, zamon va shaxs munosabatlari, yolg‘izlik, iztirob, muhabbat kabi abadiy mavzular yangicha talqinda aks ettiriladi. Shoir ijodida tasviriy vositalar nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki mazmunni ochish, ruhiy holatni ifodalash va falsafiy umumlashma hosil qilishning asosiy omiliga aylanadi. Shuningdek, keyingi yillarda Erkin Bozorov yumoristik voqeador she’rlari bilan ham ajralib turibdi. Uning asosan ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilayotgan she’rlarining katta qismi yumor orqali jamiyat muammolariga o’quvchining e’tiborini qaratish hamda she’r orqali tadbirkorlik reklamasini yuritish bo‘lib qoldi. To’g’ri, ba’zi pallalarda jiddiy mavzularda ham she’rlar yozmoqda, ammo yumor baribir yuqori planda.

Bozorov Erkin Fayozovich 1989-yil 5-yanvarda Navoiy viloyati Qiziltepa tepasi Zarkent qishlog’ida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Oilada 3 farzand (ikki nafar opasi bor). Shoir, aktyor, montaj ustasi, ijtimoiy tarmoq faoli. Avval yuridik kolleji, keyinchalik O‘zbekiston madaniyat va san’ati institutida tahsil olgan. So‘zimizni Erkin Bozorovning shaxsiy hayotiga kirish bilan boshladik, lekin aslida poetik tafakkur manbalari masalasida kengroq yondashuv bilan so‘z boshlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Poetik tafakkur shoirning borliqni estetik idrok etish va uni obrazli ifoda vositalari orqali qayta yaratish qobiliyatidir. Har bir shoirning poetik tafakkuri ma’lum manbalarga tayanadi. Bu manbalar shoirning ichki dunyosi, tarixiy tajribasi va madaniy muhit bilan uzviy bog’liq. Adabiyotshunoslikda poetik tafakkur tushunchasi shaxsiy ong va kollektiv madaniyat o’rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi. Shu bois mazkur masalani biryoqlama emas, balki ko‘p qatlamli hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Har qanday shoirning tafakkuri avvalo milliy adabiy an’ana bilan oziqlanadi. O‘zbek she’riy tafakkurining ildizlari mumtoz adabiyotga borib taqaladi. Navoiy poetikasida ramziylik, majoziylik va tasavvufiy tafakkur ustuvor bo‘lib, bu an’ana keyingi asrlar she’riyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Mumtoz adabiyotdagi obrazlar tizimi, aruz vazni, ma’naviy-axloqiy ideal zamonaviy shoir tafakkurining tarixiy qatlamini tashkil etadi. Milliy folklor, dostonchilik an’analari ham poetik

tafakkurning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Og‘zaki ijoddagi timsollar, xalqona iboralar va mifologik tasavvurlar shoir ongida obraz yaratish mexanizmini boyitadi.

Shoir poetik tafakkurining eng bevosita manbai uning shaxsiy hayotiy tajribasidir. Individual kechinma badiiy umumlashtirish orqali estetik qiymat kasb etadi. Masalan, Rauf Parfi ijodida ichki iztirob va ruhiy dramatism kuchli metaforalar orqali ifodalanadi. Uning she‘rlarida shaxsiy dard umumxalq kechinmasiga aylanadi. Shoirning ruhiy sezgirligi, tafakkur teranligi va hissiy idroki poetik obrazlarning chuqurligini belgilaydi. Shu jihatdan poetik tafakkur bu hayotni oddiy kuzatish emas, balki uni ichki falsafiy mushohada orqali qayta anglash jarayonidir.

Har bir shoir o‘z davrining mahsuli. Ijtimoiy o‘zgarishlar, siyosiy jarayonlar, milliy uyg‘onish yoki inqiroz holatlari poetik tafakkur yo‘nalishiga ta‘sir qiladi. Masalan, Abdulla Oripov she‘riyatida milliy istiqloq g‘oyasi va vatanparvarlik motivi kuchli ifodalangan. Bu esa zamon ruhining poetik tafakkurdagi aksidir. Mustaqillik davrida shoir tafakkuri erkinlashib, ichki monolog va individual qarashlar ustuvorlik kasb etdi. Demak, ijtimoiy muhit poetik tafakkurning yo‘nalishini belgilovchi tashqi omillardan biridir.

Poetik tafakkur ko‘pincha falsafiy izlanishlar bilan uyg‘unlashadi. Borliq, vaqt, o‘lim, muhabbat kabi abadiy mavzular shoir tafakkurining universal qatlamini tashkil etadi. Tasavvufiy qarashlar, ekzistensializm yoki modernistik falsafa poetik obrazlarga chuqur semantik ma‘no yuklaydi. Shoir o‘z dunyoqarashini obrazlar tizimi orqali ifodalaydi. Global madaniy jarayonlar shoir tafakkurining kengayishiga xizmat qiladi. Jahon adabiyotidagi modernistik va postmodernistik oqimlar poetik ifoda shakllarini boyitadi.

Intertekstual ishoralar, tarixiy va adabiy dialog poetik tafakkurni ko‘p qatlamli tizimga aylantiradi. Natijada shoir tafakkuri milliy va universal qadriyatlar sinteziga asoslanadi. Shoir poetik tafakkurining manbalari ko‘p qirrali va murakkab tizimdan iborat bo‘lib, ular quyidagilarda mujassam:

1. Milliy-madaniy meros va adabiy an‘ana;
2. Shaxsiy hayotiy tajriba va ruhiy kechinmalar;
3. Ijtimoiy-tarixiy muhit;
4. Falsafiy va diniy qarashlar;
5. Jahon adabiyoti va intertekstual ta‘sir.

Poetik tafakkur shoirning individual dunyoqarashi va kollektiv madaniyat sintezida shakllanadi. U nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki borliqni anglashning estetik modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Erkin Bozorov birdaniga shoirga aylanib qolmagan, unga boshqalarning va atrofdagi hodisalarning ta‘siri ham bo‘lgan albatta. Shu o‘rinda shoirning ijodidan misol keltirsak, uning “E’tiroz” nomli kichik hajmdagi she‘ri bor, biz quyida ushbu she‘rni kichikroq ko‘lamda tahlil qilamiz. Ushbu she‘r sarlavhasi ostida “Parodiya” deya tushuntirish berib o‘tilgan hamda Abdulla Oripovning she‘ridan to‘rt qatori epigraf sifatida tanlab olingan. Bunday holatlar kamdan kam uchraydigan holat sanaladi. She‘rlarda boshqa ijodkorlarning misralari epigraf sifatida olinishida hayratlanarli hech narsa yo‘q. Lekin Erkin Bozorovning she‘ri ham aslida to‘rt qator, ya‘ni to‘rt misralik she‘rga boshqa bir to‘rt misra epigraf qilib olingan. Quyida “E’tiroz” she‘rini to‘liq keltirib o‘tamiz:

Karvoning yo‘rg‘alab bormoqda hamon,
Hargiz dodimizga yetmading shoir.
Tosh kelsa kemirding, suvni simirding,
Bizga suyak tashlab ketmading shoir.¹

¹ Erkin Bozorov, “Seni baxtli qilishim kerak”. Toshkent: Mashhur press nashriyoti, 2016

Endi esa she'rni misrama misra tahlil qilamiz. “Karvoning yo'rg'alab bormoqda hamon”. Ushbu misrada karvon obrazi bor. Karvon bu oddiy safar emas. U vaqt, jamiyat, tarix yoki adabiy muhit timsoli bo'lishi mumkin. “Yo'rg'alab” so'zi esa shoshilmasdan, lekin to'xtamasdan davom etishni bildiradi. Bu yerda hayot oqimi davom etmoqda, lekin kimdir ortda qolgan, kimningdir dardi eshitilmagan degan ma'no seziladi

“Hargiz dodimizga yetmading shoir” misrasidagi obraz esa shoirdir. Bu yerda “shoir” haq so'zni aytishi kerak bo'lgan inson, xalq dardining tarjimoni, ma'naviy yetakchi obrazidir. “Dodimizga yetmading” deganda shoir o'z vazifasini bajarmadi degan da'vo mujassam. Bu tanqidiy va iztirobli murojaat hisoblanadi. Shuningdek, bizni hech o'ylamading, biz uchun g'amxo'rlik qilmading kabi ma'nolarni ham uqish mumkin.

“Tosh kelsa kemirding, suvni simirding” misrasi esa juda keskin bir ruhda. Obrazlar: tosh - og'ir sinov, zulm, qattiq haqiqat belgisi bo'lsa; suv - imkoniyat, hayot ne'mati, ehtimol foyda ham bo'lishi mumkin. “Kemirding” va “simirding” fe'llari tiriklik uchun kurashayotgan, lekin faqat o'zini o'ylayotgan odam obrazini yaratadi. Shoir bu yerda o'z jonini saqlash bilan ovora bo'lgan, chidamli, lekin xalq bilan bo'lishmagan shaxs sifatida ko'rsatiladi. Bu satrda kinoya kuchli.

“Bizga suyak tashlab ketmading shoir” misrasida suyak obrazi mavjud. Suyak minimal ulush, kamida bir og'iz taskin, bir satr haqiqat, bir ishora. Bu yerda lirik qahramon shoirni hech qanday ma'naviy ozuqa bermaganlikda, xalqni tashlab ketganlikda ayblaydi. Bu ham juda achchiq kinoya hisoblanadi.

She'rda tanqid bor, norozilik, ma'naviy talab bor. Shoirning ijtimoiy mas'uliyati masalasi ko'tarilgan. Bu she'r aslida “Shoir kim?” degan savolni qo'yadi. Shoir xalq dardi bilan yashamasa, uning she'ri kimga kerak?

Shoir o'zini qutqarib, xalqni unutsa, u haqiqiy shoir bo'la oladimi? Ushbu she'r ijtimoiy-falsafiy ruhda. Unda Navoiyning “shoir mas'uliyati” g'oyasiga o'xshash ruh seziladi.

Endi masalaning boshqa tarafi ham bor: she'r avvalo, parodiya va hazilomuz shaklda yozilgan. Shu bilan birga she'rdagi shoirdan murod Abdulla Oripovmi? Agar epigrafga e'tibor qaratsak shunday xulosaga kelish mumkin:

Deydilar it xurar, o'tadi karvon,
Ranju balolarda yonmasin joning.
Lekin alam qilar bir umr giryon,
Itlar orasidan o'tsa karvoning.

Siz she'r va epigrafni o'qigach ushbu ikki she'r o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligini, qaysidir ma'noda Erkin Bozorovning she'ri Abdulla Oripov she'rining mantiqiy davomi ekanini inkor eta olmaysiz. Shuningdek, Erkin Bozorov ijodiga ustoz shoirning ta'siri ham yaqqol ko'rinib turibdi. U O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifini o'ziga ustoz deb hisoblagan. Erkin Bozorovning yana xuddi shunday parodiya sifatida yozilgan she'ri ham mavjud: “Shoirni “anglash” deb nomlangan. Bu she'rda epigraf Erkin Vohidovdan olingan. O'sha mashhur choynakning piyolaga egilishi haqidagi she'rdan (“Kamtarlik haqida”).

Piyola ham tordi ermakni,
Choy qaytardi ezma, uch marta.
Chanqagan payt issiq choynakni
Tumshug'idan ko'tardim shartta.

Har bir naql hayotga doir,
So'z mag'zini uqmasang qiyin,

Bildim, nechog' haq ekan shoir

Og'iz-tilim kuygandan keyin.²

Har ikki she'rni bog'lab turgan nuqtalar talaydigan: har ikkisi ham parodiya sifatida yozilgan. Ikki zabardast shoirdan misralar epigraf sifatida olingan. Har ikki she'rda ham Erkin Bozorov Abdulla Oripov va Erkin Vohidovga “Shoir” deya hitob qiladi. Har ikki she'r ham kichikkina hajmda. Yana bir nuqtaga e'tibor qarataylik, she'rlarning nihoyasida ramka unsuri sifatida sana yozilgan. Har ikki she'rga ham aynan bitt asana: 23.04.2015. Demak, Erkin Bozorov aynan shu kuni ustoz shoirlardan ilhomlanganini bayon etmoq istagan, har ikkisini ham bir vaqtda yodga olgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Фан, 1967
2. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013
3. Bozorov E. Seni baxtli qilishim kerak. – Toshkent: Mashhur press nashriyoti, 2016
4. <https://t.me/erkinbozorov>
5. <http://www.youtube.com/@ErkinBozorov>

² Erkin Bozorov, “Seni baxtli qilishim kerak”. Toshkent: Mashhur press nashriyoti, 2016